

**“O’zsanoatqurilishbank” ATB Odob-axloq komissiyasining**  
**3 -sonli yig’ilish bayoni**

2023-yil “13”-oktabr

Toshkent shahri

**Yig’ilish ishtirokchilari:**

**Komissiya raisi:**

Boshqaruv Raisi A.Akbarjonov

**Komissiya a’zolari:**

Risk bosh direktori X.Akbarov

Yuridik departament direktori B.Norxujayev

Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish  
departamenti direktori S.Sergiyenko

Xodimlarni boshqarish departamenti direktori v.v.b.  
A.Tsarikayev

Komplayens-nazorat departamenti direktori v.v.b.  
A.Yakubjonov

Risk menejment departamenti direktori K.Karimov

**Komissiya kotibi:**

Xodimlarni boshqarish departamenti mas’ul xodimi  
M.Mirsaliyeva

**Axborot beruvchi:**

Xodimlarni boshqarish departamenti mas’ul xodimi  
J.Matnazarov

**KUN TARTIBI:**

**“O’zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining o’zaro manfaatlar to’qnashuvini  
o’rganish yuzasidan o’tkazilgan tahlil natijalari**

---

Komissiya Raisi A.Akbarjonov tomonidan yig’ilish ochiq deb e’lon qilindi hamda kun tartibidagi masala bo’yicha axborot berish uchun so’z Xodimlarni boshqarish departamenti mas’ul xodimi J.Matnazarovga berildi.

J.Matnazarov komissiya a’zolariga quyidagilarni ma’lum qildi:

Bank boshqaruvining 2022-yil 10-maydagi 56/7-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O’zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to’qnashuvini boshqarish to’grisidagi Nizom” talablariga asosan 2023-yilgi bank xodimlarining manfaatlar to’qnashuvi mavjudligi (mavjud emasligi) to’g’risidagi deklaratsiyalari tahlil qilib chiqildi.

Tahlil natijalariga ko'ra tizimda **real** (biri ikkinchisiga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysimuv yoki nazorat ostida bo'lishi) va **potensial** (biri ikkinchisiga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysimuv ostida bo'lmagan, biroq kelgusida bank manfaatlariga qarama-qarshi bo'lishi yoki xodimlar tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy vaziyat) manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudligi aniqlandi. Jumladan, **real** manfaatlar to'qnashuvi holatlari:

Bosh bankda - 1 ta holatda;

Hududiy tarkibiy bo'linmalarda – 10 ta holatda aniqlangan.

Shuningdek, Bosh bank va hududlarda aniqlangan real manfaatlar to'qnashuv holatidagi xodimlarning 7 nafari bola parvarishlash ta'tilida ekanligi hamda ular hozirgi kunda bevosita bank amaliyotlarini bajarmayotganligi va mehnat qonunchiligi bilan kafolatlangan ta'tilda ekanligi ma'lum bo'ldi.

**Potensial** manfaatlar to'qnashuvi holatlari:

Bosh bankda – 64 ta holatda;

Hududiy tarkibiy bo'linmalarda – 91 ta holatda aniqlangan (*ro'yhatlar ilova qilinadi*).

Kelgusida bank manfaatlarining buzilishini oldini olish maqsadida real manfaatlar to'qnashuvi holatlarini hal qilish choralarini ko'rish, potensial manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligini ma'lum qildi.

Komissiya a'zolari taqdim etilgan hujjatlar hamda bildirilgan takliflarni muhokama qilib,

### **QAROR QILADI:**

1. Xodimlarni boshqarish departamenti direktori v.v.b. (A.Tsarikayev) zimmasiga "O'zsanoatqurilishbank" ATBda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Nizom" talablariga asosan:

- Bosh bankda aniqlangan real manfaatlar to'qnashuvini holati bo'yicha xodimga bola parvarishlash ta'tilidan chiqqandan so'ng ogohlantirish berish;

- 5 kunlik muddat ichida hududiy tarkibiy bo'linmalardagi real manfaatlar to'qnashuvini holatlarini bartaraf etish yuzasidan mazkur tarkibiy bo'linmalarga ko'rsatma xat yuborish vazifasi yuklatilsin.

2. Bosh bank va hududiy tarkibiy bo'linmalarda rahbarlar tomonidan:

- aniqlangan potensial manfaatlar to'qnashuvi holatlari kelgusida real manfaatlar to'qnashuviga olib kelishini oldini olish maqsadida profilaktik suhbatlar va tegishli choralar ko'rilsin;

- Bosh bankning barcha tarkibiy, shu jumladan hududiy tarkibiy bo'linmalari xodimlariga manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha tushuntirish va o'quv-trening mashg'ulotlari o'tkazilsin.

3. Xodimlarni boshqarish departamenti tomonidan Komissiya qarori ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan 2023-yil 1-noyabrga qadar Komissiyaga ma'lumot taqdim etilsin.

4. Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish Xodimlarni boshqarish departamenti direktori v.v.b. (A.Tsarikayev) zimmasiga yuklatilsin.



ASLIGA TO'G'RI